



INGLIZ TILINI IZCHILLIKDA O`QITISHNING METODIK MEXANIZMLARI

Farmonova Naimaxon Furqat qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

E-mail: farmonovanaima490@gmail.com

+998907329582

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11202540>

Kalit soʻzlar : izchillik, tizimlilik, uzviylik, uzluksiz taʼlim, konsepsiya, fan dasturi, didaktika,


Jahon miqyosida barqaror taʼlim taraqqiyotni taʼminlovchi asosiy omil sifatida eʼtirof etilib, taʼlim muassasalarida taʼlim sifati va samaradorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yunesko tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro taʼlim konsepsiyasida "Taʼlim-taraqqiyotning asosiy xarakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadga yetkazuvchi muhim foliyat ", deb eʼtirof etilgan¹. Albatta, ilm-maʼrifat insonni komolotga va ulugʻlikka eltuvchi muhim vosita hisoblanadi. Taʼlim jarayoni murakkab jarayon boʻlib unda taʼlim beruvchilar va oluvchilar aniq maqsadga yoʻnalgan holda, taʼlim olish jarayonini tizimli, muntazam, izchil va uzviy tarzda tashkil etilishini talab qiladi.

Uzviylik va izchillik prinsiplari taʼlim jarayonini tashkil etishga oid tushuncha hamda taʼlimning tamoyillari sirasiga kiradi hamda taʼlim jarayonining taʼlimiy, tashkiliy, amaliy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Taʼlim esa pedagogning amaliy va nazariy faoliyati boʻlib, taʼlim oluvchilar tomonidan fanlarning asosi boʻlgan ilmiy tushunchalarni oʻzlashtirilishi, tegishli koʻnikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonuni va yoʻl-yoʻriqlarini oʻz ichiga oladi. Yangi tahrirdagi "Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun" ning 3-moddasida " taʼlim" tushunchasiga alohida taʼrif berilgan boʻlib, "taʼlim — taʼlim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy koʻnikmalar berishga, shuningdek, ularning umumtaʼlim va kasbiy bilim, malaka hamda koʻnikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon" ekanligi keltirilgan.² Har qanday nazariy tushuncha va amaliy koʻnikmalar taʼlim olish jarayonida shakllanadi va oʻquvchilarning yashirin isteʼdodlari mazkur jarayonda kashf etiladi. Taʼlim jarayonini amalga oshirishning bir qancha shartlari va talablari mavjud hamda bu jarayon maʼlum qonuniyatlarga boʻysunadi. Mazkur qonunning 4-moddasida taʼlim sohasidagi

¹ Incheon Deklaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all.

² — 4. [Http://unesdoc.unesco.org/](http://unesdoc.unesco.org/)

² "Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun". Toshkent-2021. 2-bet.





ITALY



ITALY

asosiy prinsiplar bayon qilingan bo'lib "ta'limning uzluksizligi va izchilligi" prinsipi qonun hujjatlarida o'z tasdig'ini topgan.³ Zero, ta'lim tamoyillari bu - o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy qonuniyatlaridir.

Ta'kidlash joizki, ta'lim tamoyillari asrlar davomida pedagog olimlar tomonidan o'rganilib, tadqiq etib kelingan va hali ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ta'lim tamoyillari pedagogikaning didaktika bo'limida asosiy qonuniyat sifatida yoritilgan hamda ta'lim qonuniyatlarini shakllanishiga ko'pgina olimlar o'z ilmiy izlanishlari bilan hissa qo'shganlar. Didaktik tamoyillarining tarixiy asosi shuni ko'rsatadiki, pedagoglar darsda oldindan ko'zlagan maqsadlariga ko'p energiya va vaqt sarflamay aniq maqsadga yetishlari uchun, bir necha avlod olimlari tinimsiz izlanishlar olib borgan hamda didaktik prinsiplar majmui yaratilishiga sababchi bo'lganlar. Mamlakatimizning yetakchi pedagog olimlari R.Mavlonova va boshqalar hammuallifligida nashr etilgan "Umumiy pedagogika" asarida ta'lim prinsiplari ko'p yillik izlanishlar va munozaralar natijasida pedagogikada yuzaga kelgani hamda dars o'tishning asosiy tamoyillar tizimi ishlab chiqilganligi haqida bayon qilingan bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir: **onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, mustahkamlik, tushunarlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi**. Mazkur tamoyillar pedagogik omma tomonidan umumiy tamoyillar deb qabul qilingan.⁴ Bu tamoyillar ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy qonuniyat sifatida olinadi. Shu bilan birgalikda tizimlilik va muntazamlilik tamoyili mazmunan uzviylik va izchillik tarzida bayon qilinadi. "Uzviylik" - to'xtovsiz, muntazam davom etuvchi jarayon tushunchasini anglatadi. "uzviylik" tushunchasi yuqoridagi g'oyaga asosan - ma'naviy va intellektual shaxs ta'lim - tarbiyasini uzluksiz yo'lga qo'yishni anglatadi. Faqat uzluksiz davom etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonlardagina shaxs shakllanishi mumkin. Shaxsni shakllantirmasdan, rivojlantirmasdan turib, davlatni ham, jamiyatni ham, rivojlantirish mumkin emas.

Izchillik tamoyili shaxs ta'lim-tarbiyasini yo'lga qo'yishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikka amal qilish va barchaga bir xil talab qo'yish tarbiyadagi muvaffaqiyatning muhim shartlaridan biridir. Izchillik va tizimlilik tamoyili tarbiyani amalga oshiradigan oila, maktab,

³ "Ta'lim to'g'risidagi qonun" Toshkent-2021. 2-bet.

⁴ R.A .Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M .K .Shirinov, S.Hafizov. "UMUMIY PEDAGOGIKA" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. TOSHKENT - 2013. 84-bet.



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilik kabi barcha bo'g'inlarning birgalikda ish ko'rishini talab etadi.⁵ Xususan, tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqaligina sifatli ta'limga erishish mumkin. Zero ta'lim va tarbiya bir-biriga chambarchas bo'liq va ularni birini ikkinchisidan ayro tasavvur qilish imkonsiz.

Uzluksiz ta'lim shaxs rivojlanishiga jadal ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omildir. Uzviylik va izchillik tamoyili quyidagi obyektiv qonuniyatlarga suyanadi:

- inson, faqat tashqi dunyoni o'z tafakkurida aniq aks ettirgandagina, haqiqiy va faol bilimlarga ega bo'la oladi;
- kishi tafakkurida ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishining asosiy usuli, maqsadga yo'naltirilgan rasmiy ta'limning tashkil qilinishi;
- rasmiy ta'limning tashkil qilinish tartibi, o'quvchilar imkoniyati va beriladigan bilimning ichki mantiqiy tuzilishidan kelib chiqqanligi;
- bilim berish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi tufayli, bilim berish samarasi, bu bosqichlar orasidagi vaqtning qanchalik qisqa bo'lishligiga bog'liq, bosqichlar orasidagi masofa vaqt jihatdan haddan oshib ketsa, bilim berish samara bermaydi;
- agar bilim va uning negizida shakllangan ko'nikmalar mashq orqali takrorlanib turilmasa, bilim va ko'nikma yo'qolib ketadi;
- o'qitishda tizimlilik va muntazamlikka amal qilinmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni susayadi.⁶

Xususan, yangi tilni o'rganish jarayonida ham maqsadga izchillik bilan yondashish, dars mashg'ulotlarining uzviyligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning tasdig'i o'laroq Vazirlar Mahkasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Ilmiy-metodik Kengashining 2020-yil 6-noyabrdagi yig'ilish qarori bilan "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'quv dasturlarining uzviyligini ta'minlash" vazifasi belgilangan. Ushbu vazifaning ijrosi o'laroq Oliy ta'lim bo'yicha 2ta: 1-filologik va 2-nofilologik yo'nalishda quyidagi o'quv dasturlar mos ravishda tanlandi va uzviyligi ustida ishlandi:

- asosiy o'rganilayotgan chet tili (ingliz, fransuz, nemis tillari) fan dasturi;
- mamlakatshunoslik (ingliz, fransuz, nemis tillari) fan dasturi;

⁵ D.A.Axatova, F.O.Xodjiyeva, F.X.Aminova. Pedagogika nazariyasi va tarixi: darslik, Toshkent, Bookmany print-2023.198-bet.

⁶ R .A .Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M .K .Shirinov, S.Hafizov. "UMUMIY PEDAGOGIKA" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsifa etilgan TOSHKENT – 2018. 89-90-betlar.





- tillarni o`qitish metodikasi va ta`lim texnologiyali fan dasturi;
- xorijiy til (nofilologik OTMlar uchun ingliz, fransuz, nemis tillari) fan dasturi;⁷

Globalashuv jarayoni chet tilini o`rganishning yangi vazifalarini keltirib chiqarmoqda. Vazifalar davomi sifatida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O`zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi 312-son qarorlari qabul qilinib yangi marralar belgilandi. Qarorlar ijrosiga binoan CHET TILI (ingliz, fransuz, nemis va b.) fani bo`yicha “Maktabgacha, umumiy o`rta, o`rta maxsus, professional va oliy ta`lim tizimlarida o`quv dasturlarining uzviyligini ta`minlash Konsepsiyasi” tayyorlandi. Mazkur konsepsiya uzluksiz ta`lim tizimining barcha bosqichlari uchun mo`ljallangan bo`lib, uzviylikni ta`minlashga asos bo`ladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, ta`lim jarayoni murakkab va ko`p qirrali jarayon. Ta`lim olish jarayoni samarali bo`lishi talaygina omillarga va qonuniyatlarga bog`liq. Mana shu qonun-qoidalar, qonuniyatlar har bir fan va har bir ilm yo`nalishi uchun muhim hisoblanadi. Bu qonuniyatlar ming yillar davomida ilm-fan rivoji jarayonida sayqallanib o`zining eng samarali va muhim aspektlarini saqlab qolgan. Yuqorida ta`kidlab o`tilganlardan shuni bilib olish mumkinki, ta`lim prinsiplari pedagog olimlarning ko`p yillik tajriba va kuzatishlari jarayonida hosil bo`lgan. Bu jarayonda uzviylik va izchillik ta`lim jarayonini samarali bo`lishini ta`minlovchi dolzarb ahamiyatga ega bo`lgan qonuniyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.D.A.Axatova, F.O.Xodjiyeva, F.X.Aminova. Pedagogika nazariyasi va tarixi: darslik, Toshkent, Bookmany print-2023,198-bet.
- 2 2.Incheon Deklaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. p.24. [Http://unesdoc.unesco.org/](http://unesdoc.unesco.org/)
- 3.“Ta`lim to`g`risidagi qonun” Toshkent-2021, 2-bet.
- 4.R .A .Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M .K .Shirinov, S.Hafizov. “UMUMIY PEDAGOGIKA” O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT – 2018, 84-bet.
- 5.R .A .Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova , M .K .Shirinov, S.Hafizov. “UMUMIY PEDAGOGIKA” O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan TOSHKENT – 2018, 89-90-betlar.





SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



6.Chet tili fani bo'yicha Ozbekiston Respublikasi Uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari, Toshkent-2021, 7-bet.

